

“MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING HARBIY YURISHLARI”

*Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) yo‘nalishi 232-guruh talabasi
Latipov Xursandbek Maqsud o‘g‘li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari, uning natijalari hamda yurishlarning Aleksandr qo‘shiniga va yerli xalqqa ta‘sirini qanday bo‘lganligi haqida aytib o‘tilgan.

Аннотация: На эти статьи пересказал о военная битва, его результаты и действие в Армии Александре и земной народе эту войну.

Annotatsion: In this newspaper related military moves, her results and prestige this wars to army Alexander’s and local people.

Kalit so‘zlar: Arrian, “Aleksandr anabasi”, Granik, mamakenlar, Kvint Kursiy Ruf, ellinizm, stadiy, Politimet, Frigiya, Pisidiya, Oks, Aleksandriya Esxata, Tanais, Roksana, “dunyoning oxiri”.

Ключевие слова: Арриан, «Александрские анабаси», Граник, мамакенцы, Квинт Курсий Руф, эллинизм, стадий, Политимет, Фригия, Писидия, Окс, Александрия Эсхата, Танаис, «Конец мири».

Key words: Arrian, “Anabasis of Alexander”, Granicus, mamakens, Kvint Kursiy Ruf, ellinism, stadiy, Politimet, Phrygia, Pisidia, Oxus, Alexanderia Esxata, Tanais, Roksana, “world’s finish”.

Kirish. Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari nafaqat O‘rta Osiyo xalqlari, balki jahon xalqlari tarixida ham muhim ahamiyatga ega voqealardan hisoblanadi. Zotan, aynan shu yurishlar va unga bag‘ishlab yozilgan asarlar orqali o‘sha davr tarixini ham mukammal ravishda o‘rganish va qay ma’noda o‘sha davr tarixini ko‘z oldimizda jonlantirish imkoniga ham ega bo‘lamiz. Umuman olganda, o‘sha davr uchun Makedoniyalik Aleksandrning kabi katta va buyuk davlatning mavjud bo‘lganligining o‘zi ham qadimgi dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk tarix hisoblanadi. Shunday buyuk davlatning vujudga kelish tarixi, boshqa o‘lkalarni harbiy yurishlar orqali o‘ziga qanday bo‘ysundirgani hech kimga sir emas, albatta. Ushbu maqola orqali sizlarga bu davlatning harbiy yurishlari, ularning natijalari va yurishlarning Aleksandr qo‘shiniga va yerli xalqlarga ta‘sirini qisqacha bo‘lsa-da yoritib berishga harakat qildik. Umid qilamizki, ushbu maqola orqali kitobxonlar Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari va uning mahalliy xalqlarga ta‘sirini haqida qisqacha bo‘lsa ham tushunchaga ega bo‘lishadi.

Adabiyotlar tahlili. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlarini o‘rganish jarayonida o‘sha davrga oid bo‘lgan bir qancha adabiyotlar, jumladan,

Arrianning “Aleksandr anabasisi” asari, Kvint Kursiy Rufning “Makedoniyalik Aleksandr tarixi” asari va o’sha davrda bu yurishlarda shaxsan qatnashib, o’zining ko’rgan-kechirganlarini yozib qoldirgan odamlarning manbalari va bugungi kun tarixchilari tomonidan shunga bag’ishlab yozilgan asarlarga murojaat qilindi. Ushbu adabiyotlar qiyosiy o’rganildi va Makedoniyalik Aleksandrning qilgan yurishlari tahlil qilindi. Xususan, Arrianning “Aleksandr anabasisi” asarida Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari haqida ko’plab ma’lumotlar yozib qoldirilgan. Arriangacha Aleksandr haqida ko’plab asarlar yaratilgan. Biroq, Arrian yaratgan asar tarixiy dalillarning aniqligi, voqealar tasvirining jonliligi bilan sezilarli darajada ajralib turadi. Arrian asarining Aleksandr haqida yaratilgan o’zga asarlardan ustun tomoni shundaki, boshqa mualliflar bu mavzuda yozuvchi yoki tarixchi sifatida yondashgan bo’lsalar, Arrian harbiy mutaxassis, hatto sarkarda sifatida qaraydi¹. Aynan shuning uchun ham, bu asar Aleksandrning harbiy yurishlarini har bir detaligacha tushunarli qilib tasvirlab bergan qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu asarda endi hukmronlik qila boshlagan davrlaridan to o’limigacha bo’lgan davrda qilgan harbiy yurishlari haqida yozilgan. Arrianning ushbu asari yettita kitobdan iborat. Birinchi kitobida, Filippning o’limi davridan boshlab, Aleksandrning Frigiyaga kirib kelishigacha bo’lgan oraliqdagi yurishlari to’g’risida yozilgan. Granik jangi (mil.avv 334-yil), Aleksandrning Frigiya va Pisidiyaga kirib kelishi, forslarning mag’lubiyati kabi bo’limlarni o’z ichiga olgan. Arrianning asarining 1-kitobi 13-bo’linida Granik jangi haqida shunday deyiladi: “Shu paytda Iskandar qo’shinini jangga tayyorlab, og’ir qurollangan qo’shini 2 ta falangaga yig’ib, otlidlarni qanotlarda boshqarib, yuklarni orqada kuzatib turishni buyurib, Granik daryosi bo’yiga ketayotgan edi². Bundan biz ushbu jangning hozirgi Turkiya hududida bo’lganligini ko’rishimiz mumkin. Bu to’qnashuv Granik daryosi, hozirgi Ko’chabosh bo’yida, Anatoliyaning shimoli-g’arbida bo’ldi³. Ushbu jang Aleksandrning g’alabasi bilan yakunlanib, jangda Aleksandr 2000 nafar vatan xoinini qatl ettirdi, tirik qolganlarini Makedoniyagacha bo’ynida zanjir bilan olib bordi⁴. Arrian asarining ikkita kitobi uchinchi va to’rtinchi kitoblari O’rta Osiyo tarixiga bag’ishlangan. Uchinchi kitob 30 bobdan tashkil topgan. Uchinchi kitobning 28-bobidan boshlab O’rta Osiyo tarixining o’ziga xos tasviri keltiriladi⁵. Ushbu kitobda Aleksandrning O’rta Osiyoga kirib kelishidan boshlab, O’rta Osiyo yurishlari yakunlangunigacha bo’lgan oraliqdagi harbiy yurishlar va janglar haqida aytib o’tilgan. Asarning to’rtinchi kitobi Aleksandrning Tanais daryosi

¹. Fayzulla Boynazarov. – Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent “Iqtisod-moliya” – 2006. 79-bet.

². E.J.Chinnock., M.A., LL.B., LONDON, Butler & Tanner, The Selwood Printing Works, Frome, and London. Anabasis of Alexander - Book I, Chapter XIII.

³. D. J. Urakov, R. N. Tursunov, A. A. Biykuziyev, B. B. Xaynazarov. – Jahon tarixi. – Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” – 2020. 200-bet.

⁴. D. J. Urakov, R. N. Tursunov, A. A. Biykuziyev, B. B. Xaynazarov. – Jahon tarixi. – Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” – 2020. 200-bet.

⁵. Fayzulla Boynazarov. – Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent “Iqtisod-moliya” – 2006. 81-bet.

yoqasiga kelishi, daryo bo'yiga shahar qurish va unga Aleksandr deb nom berishi bilan boshlanadi⁶. Asarning ushbu kitobida Aleksandrning Tanais daryosi bo'yida shahar qurdirish va unga o'z nomini berishidan boshlab, Hindistonga yurishlarning boshlanishi davrigacha bo'lgan oraliqdagi voqealarni o'z ichiga olgan va O'rta Osiyo yurishlarining yakunlari haqidagi ma'lumotlar shu kitobda keltirilgan. Beshinchi, oltinchi va yettinchi kitoblarida esa Hindiston yurishlari va undan keyingi voqealar, shuningdek, Aleksandr qo'llagan harbiy taktikalar haqida ham yozib qoldirilgan. Kvint Kursiy Rufning "Makedoniyalik Aleksandr tarixi" asarida esa Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, asarda Diodor, Yustin va Plutarxning Aleksandr haqida hikoyalari, Pompey Trogning Filipp haqida yozib qoldirgan ma'lumotlari ham mavjud. Qo'shimcha tarzda shuni ham aytib o'tishimiz mumkinki, yunon tarixchilarining asarlarida o'lchov birliklarini qo'llashda ayrim chalkashliklar ham mavjud. Xususan, Gerodot o'z asarlarida Ahamoniylar davridan boshlab bir kunlik yo'l o'lchovini 50 stadiy yoki 5 farsax deb yozib qoldirgan (ushbu masofa 28 km ga teng). Kvint Kursiy Ruf asarlarida esa Baqtra shahridan Oksgacha bo'lgan masofa 400 stadiy (75 km) deb yozib qoldirilgan. Ularning yozib qoldirgan ma'lumotlarini solishtirib qaraydigan bo'lsak, Gerodot ma'lumotlari bo'yicha 1 stadiy o'lchov birligi 560 m ga, Kvint Kursiy Ruf ma'lumotlari bo'yicha 1 stadiy o'lchov birligi 137,5 m ga tengligini va ularning orasida anchagina farq borligi ayon bo'ladi. Buni esa bir necha xil sabablar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, o'lchov birliklarining qo'llanishida farqlar bo'lgan bo'lishi mumkin. Kvint Kursiy Rufning rimlik, Gerodotning esa yunonistonlik bo'lganligini inobatga oladigan bo'lsak, ikki hududda ushbu o'lchov birligi turlicha ko'rinishda bo'lganligi ham ehtimoldan xoli emas. Ikkinchidan, agar ushbu o'lchov birligi ikki hududda bir xil ko'rinishda qo'llangan bo'lsa-da, yuqoridagi ikki olim yashab o'tgan davrlar orasidagi farqni hisobga olgan holda, asrlar o'tishi bilan uning qo'llanishida o'zgarishlar bo'lgan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, Gerodot va Kvint Kursiy Rufning stadiyni qo'llashdagi bu farqi tarixni o'rganishda odamni chalkashtirgulik darajada sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi va har bir o'quvchiga buni anglash va o'ziga mos ravishda o'rganishda qiyinchilik tug'dirmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlarini o'rganishda tanqidiy janrdagi uslubiy-metodologiyadan foydalanildi. Ya'ni, uning qilgan harbiy yurishlari va yerli aholiga qilgan ta'siri tanqidiy asosda ko'rib chiqildi. Ayni vaqtda, Aleksandr va uning yurishlari ta'sirida yerli xalqlarga kirib kelgan ellinistik madaniyatning foydali tomonlari ham inkor etilgani yo'q. Tadqiqot jarayonida faqatgina tanqidiy jihatdan yondashilganda va uning taraqqiyot yuksalishiga qilgan turtkilari ham inkor qilinganda, o'rganish jarayonida noxolislikka yo'l qo'yilgan bo'lar edi, albatta. Mavzuni o'rganishga tanqidiy yondashilgan bo'lsa-

⁶. Fayzulla Boynazarov. – Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent "Iqtisod-moliya" – 2006. 87-bet.

da, mavzuni xolis yaratishga harakat qildik va umid qilamizki, ushbu mavzuda yoritilgan maqolamiz o'quvchilar ommasiga manzur keladi.

Tahlil natijalari. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari qadimgi davrda bo'lib o'tgan harbiy yurishlar ichida ko'lami jihatdan eng katta yurishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yurishlar Sharqqa qaratilgan bo'lib, 10 yil davom etgan. Ana shu yurishlar davomida u Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindistonda katta-katta hududlarni bosib oladi⁷. Aleksandr ushbu yurishlar ichida eng ko'p vaqtini O'rta Osiyoga sarflagan desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Zotan, Aleksandr mil.avv 334-330-yillar oralig'ida Kichik Osiyo, Misr, Mesopotamiya, Eron kabi katta hududlarni bosib olgan va ushbu yurishlarga 4 yil vaqt sarflagan. O'rta Osiyoda Marg'iyona, Baqtriya, Sug'diyona, hozirgi Bekobod va Xo'jand oralig'idagi Sirdaryo bo'ylarini bo'ysundirishga esa uning 3 yil vaqti ketgan. O'rta Osiyoda egallangan ushbu hududlarning kattaligini O'rta Osiyo yurishigacha bo'lgan vaqt ichidagi egallagan yuqoridagi hududlar bilan solishtiradigan bo'lsak, O'rta Osiyoda egallangan barcha hududlar yuqorida aytib o'tilgan har bir hudud bilan solishtirib chiqilsa ham kichikroq bo'lib chiqadi. Shuningdek, O'rta Osiyo yurishi Aleksandr uchun juda qimmatga tushgan yurish desak ham bo'ladi. Xususan, Politimet (hozirgi Zarafshon) yaqinidagi jangda Aleksandr yuborgan ikki ming kishilik qo'shinning pistirmaga tushib, tamomila qirib tashlanganining o'zi ham buning yorqin dalilidir. O'rta Osiyodagi yurishlar natijasida Aleksandrning harbiy askarlari ancha charchab qolgan va saflari ham siyraklashib qolgan edi. Bu askarlarning siyraklashgan saflari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va Sug'diyona yoshlari hisobiga to'ldiriladi. Lekin, armiyadagi ayni paytdagi mavjud askarlarni qayta ruhlantirishning iloji bo'lmadi. Zotan, ularga forslar tor-mor etilgandan keyin uyiga qaytishga ruxsat berilgan edi, amalda esa ulardan O'rta Osiyo yurishlarida ham foydalanildi. Aleksandr O'rta Osiyo hududlarini egallash uchun qanchalik chiranmasin, u baribir O'rta Osiyo yerlarini egallashni o'zining asosiy maqsadi deb bilmagan. Aleksandr bolalikdan ajdodlari Gerakl va Axillesga jasorat bobida munosib bo'lish ruhida tarbiyalangan va uning bu orzusi dunyoni egallash orzusi bilan uyg'unlashgan. O'sha kezlarda yunonlar Hindistonni dunyoning oxiri deb bilishardi. Hindistonni egallash bilan esa butun dunyoni egallashdek orzu amalga oshar edi. Mabodo, Hindistonni egallash muvaffaqiyatsizlikka uchraydigan bo'lsa, Aleksandrga chekinish uchun xavfsiz hudud kerak bo'lgan. O'rta Osiyo yerlari esa bu borada eng qulay hisoblangan. O'rta Osiyo yurishlarining strategik maqsadi aynan shunday bo'lgan.

Yuqorida aytib o'tgan ma'lumotlarimiz Aleksandrning harbiy yurishlarining Aleksandr qo'shiniga ta'siri haqida edi. Ushbu yurishlarning yerli xalqlarga ta'siri esa anchagina katta bo'lgan. Xususan, Kichik Osiyoda Granik jangidan keyin, 2000 ga yaqin "vatan xoini" o'ldirildi, Finikiyada Tir shahri egallangandan keyin 30 000 ga

⁷. A.S. Sagdullaev., V.A. Kostetskiy. Tarix (Qadimgi dunyo). "Yangiyo'l Poligraf Servis" Toshkent – 2017. 124-bet.

yaqin shahar aholisi qul qilib sotib yuborildi. Eronda Persepol shahriga o't qo'yildi. Sirdaryo sari ketayotgan payti Ustrushona yonida mamakenlar bilan jang natijasida mahalliy aholidan 22 ming kishi halok bo'ldi. Maroqandaga Spitamen bilan jang qilish uchun kelgan Aleksandr Spitamenning chekinganidan xabar topgach, Maroqanda va Quyi Zarafshon oralig'idagi 120 mingga yaqin tinch aholini qirib tashladi. Yurishlar natijasida ko'pgina hududlar xarobazorga aylandi, xususan, Sug'diyona butkul xarobaga aylanib qoldi. O'rta Osiyoni janglar orqali egallash oson emasligini bilgan Aleksandr boshqacha yo'l tuta boshlaydi. Mil. avv. 327-yilda Aleksandr Hisor tizmasida joylashgan, sug'd zodagoni Oksiart egallab turgan "Sug'd qal'asi"ni qo'lga kiritib, uning go'zal qizi – 14 yoshli Ravshana – Ruxshanak(Roksana)ga uylanadi.

Yana bir qudratli qal'a (Xoriyen yoki Sizimitr qal'asi) Sug'diyona va Baqtriya chegaralaridagi tog'larda joylashgan. Bu yerda Xoriyenning oila a'zolari hamda yaqin qarindoshlari, tarafdorlari va xizmatkorlari yashiringan edi. Xoriyen o'z ixtiyori bilan Aleksandrغا bo'ysunishga rozi bo'lgan⁸. Albatta ushbu qal'alarni Xoriyen va Oksiart o'z ixtiyori bilan topshirishgan.

Ushbu yurishlarning bergan eng katta zarari ma'naviy zarar bo'ldi. Makedoniyalik Aleksandr yurishlari natijasida ko'plab shaharlar vayron bo'ldi. Lekin, yetkazilgan zararlarning eng ayanchlisi Aleksandr buyrug'iga binoan "Avesto"ning yoqib yuborilishi bo'ldi. Aleksandr buyrug'iga ko'ra, "Avesto"ning tibbiyotga doir qismlari Yunonistonga olib ketildi, qolgan qismlari esa yoqib yuborildi. Ma'lumotlarga ko'ra, "Avesto"ning yoqib yuborilgan qismi to'liq kitobning beshdan uch qismini tashkil qilgan.

Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari aholining katta qismining qirilib ketishiga, ko'plab shaharlar vayron bo'lishiga hamda ko'plab yozma manbalar va ilmiy asarlarning yo'qolib ketishiga sababchi bo'lgan bo'lsa-da, uning foydali taraflari ham yo'q emas. Aleksandrning harbiy yurishlari Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo-sotiq hamda madaniy aloqalarning jonlanishiga olib keldi. Mamlakatda yunon o'lchov birliklari joriy etildi. Aleksandr va uning yaqin lashkarboshilarining vafotidan so'ng mahalliy hamda yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlandi. Bu jarayonning ta'sirini moddiy madaniyatning rivojlanishida, qurilish va me'morchilikda, kulolchilik va tasviriy san'atda, yangi alifbo va yozuvlarning tarqalishida, tangashunoslikda hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin⁹. Bir qancha yillardan so'ng esa, bosib olingan hududlarda ellinistik ko'rinishdagi davlatchilik an'analari rivojlana boshladi. Mil. avv 250-yildan e'tiboran mustaqillikka erishgan va 120 yil atrofida hukm surgan Yunon-Baqtriya davlati va milodiy I-III asrlar oralig'ida

⁸. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Mas'ul muharrir: A.S. Sagdullayev - O'zbekiston tarixi (I kitob). Toshkent "Donishmand Ziyosi" – 2021. 203-bet.

⁹. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Mas'ul muharrir: A.S. Sagdullayev - O'zbekiston tarixi (I kitob). Toshkent "Donishmand Ziyosi" – 2021. 204-bet.

mavjud bo'lgan Kushon davlati ellinistik davlatlarga yaqqol misoldir. Mil.avv III-II asrlar bo'sag'asida Sug'dda Antiox I va Yevtidem tangalariga taqlidan zarb etilgan tangalarning mavjud bo'lganligining o'zi ham O'rta Osiyo hududida Aleksandr yurishlaridan keyin ellinizm keng yoyilganini ko'rsatadi.

Aleksandr O'rta Osiyoda bir qancha shaharlar ham qurdirdi. Strabonning 17 jildli "Geografiya kitobida aytilishicha, "Aleksandr Baqtriya va Sug'diyonada 8 ta shaharga asos solgan va ko'plarini vayron qilgan. Vayron qilinganlari jumlasidan Baqtriyadagi Kariata (bu yerda Kallisfen qo'lga tushib, qamoqqa olingan), Sug'diyonadagi Maroqanda va Kira – Yaksart daryosidagi Kir tomonidan qurilgan oxirgi shahar; bu fors davlatining chekkasi bo'lgan. Aleksandr Kirni hurmat-izzat qilgan bo'lsa ham, bu shahar aholisining ko'pdan-ko'p qo'zg'olonlari sabablariga ko'ra uni vayron qilishga buyruq bergan ekan"¹⁰. Aleksandr barpo etgan shaharlar asosan uning nomi bilan atalgan, ya'ni har bir shahar nomida Aleksandriya so'zi qatnashgan. Shahar nomlaridan qayerda joylashganligini taxmin qilsa ham bo'ladi. Jumladan, Oksdagi Aleksandriya nomidan shaharning Oks (hozirgi Amudaryo) daryosi bo'yida qurilganligini, Aleksandriya Esxata (hozirgi Xo'jand yaqinida barpo etilgan shahar) nomidan bu shaharning mamlakat hududining chekka qismida barpo etilganligini anglab olish mumkin (yunon tilida "esxata" so'zi chekka degan ma'noni bildirgan). Ushbu shaharlar vayron qilingan shaharlar o'rnida yoki tayanch qal'a sifatida yangidan qurilgan va albatta, ushbu shaharlarni qurishdan ma'lum bir strategik maqsadi bo'lgan. Xususan, Aleksandriya Esxata (chekka Aleksandriya) shahri saklarga qarshi kurash maqsadida qurilgan. Ushbu shaharlarning qurilishi, yunon-makedonlar va ularning avlodlari davrida savdo-sotiqning jonlanishi kabi jarayonlar yunonlarning yerli xalqlar madaniyatiga ta'sirini va ayni vaqtda u yerlarda ellinizm qay darajada ommalashganligini ko'rsatadi. Yunonlar nafaqat ko'p xalqlarga o'zining ellinistik madaniyatini yoyishdi, balki turli xalqlarning madaniyatlaridan yaxshi jihatlarni o'zlashtirib, o'zlarining madaniyatini Sharq xalqlarining ma'naviy yutuqlari bilan boyitgan holda, o'z madaniyatini avvalgidan-da yuksakroq darajaga chiqardi.

Xulosa. Urushda hech kim g'alaba qozonmaydi va insoniyat unda doimo mag'lub bo'ladi. Makedoniyalik Aleksandrning harbiy yurishlari esa o'z davrida insoniyatning eng katta mag'lubiyatlaridan bo'ldi. Zotan, qanchadan qancha tinch aholi vakillari qirilib ketdi, ko'plab shaharlar vayron bo'ldi, ma'lum vaqt sivilizatsiyalar ham to'xtab qolib, iqtisodiyot ham anchagina izdan chiqdi. Urush oqibatlari insoniyat olamida bir necha yuz yillar o'zining asoratlarini saqlab qoldi. Xususan, O'rta Osiyoda ushbu yurishlardan bir necha o'n yillar o'tgandan keyin, tinch hayot tiklana boshladi. Ko'plab hududlarda esa ushbu urush oqibatlari

¹⁰. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Mas'ul muharrir: A.S. Sagdullayev - O'zbekiston tarixi (I kitob). Toshkent "Donishmand Ziyosi" – 2021. 200-bet.

yumshamasidanoq, yangi qirg'inlar boshlanib ketdi. Ko'plab tarixchilar o'z asarlarida Makedoniyalik Aleksandrni jahon xalqlarini va davlatlarini birlashtiruvchi podsho, adolatli dunyo davlatiga asos solishni maqsad qilgan shaxs kabi ko'rinishlarda tasvirlagan. Aleksandr ham albatta butun dunyoni birlashtirishga va uni boshqarishga harakat qilgan, lekin bu ishlar ko'plab insonlar qoni to'kilishiga ham sababchi bo'lgan. Afsuski, o'sha paytlari zamon zayli shuni talab qilgan. Lekin, Aleksandr harbiy yurishlaridagi urushlardan 14 mingtasini boshidan kechirgan insoniyat bugungi kunda ham o'z mojarolarini ko'p hollarda qurol kuchi bilan hal qilmoqda. Insoniyatning urushlarda ko'plab begunoh odamlarning qoni to'kilishidan va hatto, ularning qurbon bo'lishidan ham xulosa qilmasligi achinarli. Biz esa, har birimiz yuqoridagi kabi urushlardan xulosa chiqargan holda, tinchlik uchun tinch yo'l bilan kurashishimiz zarur. Zero, qachonki insoniyat o'zining tarixidan saboq chiqargan holda, urushlarni to'xtatsa va tinchlikning urushlar ustidan g'alabasini ta'minlasa, dunyo yana muvozanatga qaytadi va insoniyat o'zining yuksalish yo'lidagi bir zanjirdan xalos bo'lgan bo'ladi. O'z o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, urush – insoniyat ildiziga uriladigan boltadir, tinchlik esa insoniyatni muvozanatda ushlab turguvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.J.Chinnock., M.A., LL.B., LONDON, Butler & Tanner, The Selwood Printing Works, Frome, and London. Anabasis of Alexander.
2. Fayzulla Boynazarov. – Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent “Iqtisod-moliya” – 2006. 384 bet.
3. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. Mas'ul muharrir: A.S. Sagdullayev - O'zbekiston tarixi (I kitob). Toshkent “Donishmand Ziyosi” – 2021.
4. D. J. Urakov, R. N. Tursunov, A. A. Biykuziyev, B. B. Xaynazarov. – Jahon tarixi. – Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” – 2020. 292 bet.